| | |
|---|---|
| ***Tarkibiy tuzilma nomi*:** | Tuman (shahar) adliya bo'limlari |
| ***Tanlov bosqichi*:** | Suhbat |
| ***Yo‘nalishi:*** | Mutaxassislikka oid savol |

1. Da’vo muddati tushunchasi, muddatning o‘tishi va to‘xtatilishi hamda uni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni tushuntirib bering.
2. Kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida ishsiz shaxslarga stipendiya to‘lash va uning muddatlarini tushuntirib bering?
3. Aholining qaysi toifalari uchun ishga joylashishda qo‘shimcha kafolatlar belgilangan?
4. Qanday hollarda ishga qabul qilishda dastlabki sinov belgilanadi va kimlar dastlabki sinov bilan ishga qabul qilinmasligi lozim?
5. Nogironlik pensiyasi va nogironlik nafaqasining bir-biridan farqi nimada?
6. Pensiya tayinlash masalasi qancha muddatda ko‘rib chiqiladi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” PF-80-son Farmonida tuman (shahar)lar adliya bo‘limlariga qanday qo‘shimcha vazifalar beliglab berildi?
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018-yildagi PF-5415-son Farmonida adliya organlari va muassasalari faoliyatida huquqiy islohotlarning yuqori samaradorlik darajasiga erishishga to‘sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi sanab o‘tildi, ular qaysilar?
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018-yildagi PF-5415-son Farmonida Adliya organlari va muassasalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sanab o‘tildi, ular qaysilar?
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018-yildagi PF-5415-son Farmoniga muvofiq tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlarining asosiy vazifalarini sanab bering.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018-yildagi PF-5415-son Farmoniga muvofiq 2018-yildan boshlab qanday tartib joriy etildi?
12. Xorijiy til o‘qituvchilarini ishda qolishi yoki ishga kirishi uchun qanday turdagi (xalqaro) sertifikatlardan birini olishi kerak!
13. Pensionerning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiyani to‘lash va dafn etish uchun nafaqa to‘lash qanday amalga oshiriladi?
14. Qaysi turdagi ishlar ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi?
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” PF-80-son Farmoniga muvofiq 2024-yil 1-iyuldan boshlab fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko‘rsatishning qanday tartibi joriy qilindi?
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, qonunchilik hujjatlarini ijrochilarga yetkazish hamda ularning mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida qanday vazifalar nazarda tutildi?

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq Adliya vazirligining mahallalarda haftaning har chorshanba kunini qanday kun deb belgilangandi va qanday tadbirlarni amalga oshirish belgilandi?

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq «Mamlakat kelajagi — qonunga itoatkor va huquqbuzarlikka toqatsiz yoshlar bilan» g‘oyasi asosida adliya organlari va muassasalari qanday tadbirlarni amalga oshirishi kerak?

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq Adliya vazirligi davlat organlari va tashkilotlarida huquqni qo‘llashni metodik ta’minlash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanib, qanday tadbirlarni amalga oshirishi nazarda tutildi?

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq Adliya vazirligi davlat organlari va tashkilotlarida huquqni qo‘llashni metodik ta’minlash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanib, qanday tadbirlarni amalga oshirishi nazarda tutildi?

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq aholi va tadbirkorlik subyektlarining intellektual mulk sohasidagi huquqlarini himoya qilish maqsadida qanday yangiliklar joriy etildi?

22. Davlat organi va tashkiloti yuridik xizmat xodimi tomonidan sudgacha va sud tartibida undirilgan mablag‘lar hisobidan yuridik xizmat xodimlarini mukofotlash tartibi haqida gapirib bering.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi PF-80-son Farmoniga muvofiq qachondan ekperiment tariqasida Toshkent shahrida qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan ayrim davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy hujjatlarni sudgacha ko‘rib chiqishning yangi tartibi joriy etildi va eksperiment doirasida nimalar qilinishi nazarda tutilgan?

24. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan hujjatga ko‘ra yuridik xizmatlarining martaba darajalariga ega bo‘lgan xodimlariga uzoq muddat xizmat qilganligi uchun beriladigan har oylik ustamalar miqdorlari qancha qilib belgilangan?

25. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son qarori 3-ilovasi bilan tasdiqlangan hujjatga ko‘ra yuridik xizmatlarining yuridik xizmatlari xodimlarining lavozim maoshlariga martaba darajalari uchun qo‘shiladigan qo‘shimcha haq miqdorlari qancha qilib belgilangan?

26. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan hujjatga ko‘ra yuridik xizmatlarini tashkil etish shakllari qanday belgilangan?

27. Martaba darajasi olish uchun davlat organi va tashkiloti tomonidan yuridik xizmat xodimlariga oid qanday hujjatlar taqdim etilishi kerak?

28. Davlat organlari va tashkilotlarining qaysi tarkibiy bo‘linmalari tomonidan yuridik xizmat xodimlarining martaba darajalari qanday muddatlarda va kim tomonidan xatlovdan o‘tkazilishi kerak?

29. Yuridik xizmat xodimini stajirovka o‘tash jarayonida stajyorga adliya organlari tomonidan qanday sharoitlar yaratib beriladi?

30. Adliya organlarida yuridik xizmat xodimini stajirovka rahbariga qanday talablar qo‘yilgan va stajirovkaning muddati qanday?

31. Yuridik xizmat xodimini stajirovka rahbari va stajyorning majburiyatlari haqida gapirib bering.

32. Qanday hollarda pensiyadan chegirib qolinadi?

33. Ma’muriy organning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) bilan sudga murojaat etish muddatlari haqida ma’lumot bering?

34. Fuqarolar va yuridik shaxslar qaysi masalalarda Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin?

35. Belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga yuborilgan shaxslar deganda kimlar tushuniladi va ular uchun minimal qancha joy ajratilishi kerak?

36. Yoshga doir pensiya muddatidan oldin qanday hollarda tayinlanadi?

37. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan qaysi masalalardagi ishlar ko‘rib chiqiladi?

38. Huquqiy axborotni taqdim etish to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan so‘rovlar qancha muddatda ko‘rib chiqiladi?

39. Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar haqida tushuntirish bering.

40. Mehnat shartnomasini o‘zgartirish asoslari va mehnat shartlari tushunchasini tahlil qiling.

41. Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslarini ayting.

42. Mehnat kodeksiga ko‘ra intizomiy jazo choralari bilan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” Qonunda belgilangan intizomiy jazo choralarining farqli jihatlari qaysilar? sanab bering!

43. Nikoh davomida orttirilgan mol-mulk qanday tartibda bo‘linadi?

44. Ma’muriy yoki protsessual hujjat yuzasidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib bering.

45. Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko‘ra bekor qilishni tahlil qiling.

46. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishni tahlil qiling.

47. Kimlar ish qidirayotgan shaxslar sifatida mahalliy mehnat organlarida ro‘yxatga olinishi mumkin?

48. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga qanday imtiyozlar beriladi?

49. Gender tenglik deganda nima tushunasiz. Ushbu sohani tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishsiz? Qisqacha ma’lumot bering.

50. Qaysi vakolatli organlar qanday hollarda bank sirini talab qilishga haqli?

51. Bevosita tuman (shahar) sudlarida ko‘rilishi lozim bo‘lgan mehnat nizolari haqida ma’lumot bering.

52. Mehnat nizosini hal qilishni so‘rab murojaat etish muddatlariga to‘xtaling.

53. Fuqarolarning ishga joylashish huquqni amalga oshirish uchun davlat qanday kafolatlarni belgilaydi?

54. Xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo‘shatish mezonlariga nimalar kiradi?

55. Ishga qabul qilish bosqichlari hamda avval tanishtiriladigan hujjatlar haqida batafsil gapirib bering!

56. Qaysi holatlarda xodimning zimmasiga to‘liq moddiy javobgarlik yuklatiladi?

57. Majburiy tibbiy ko‘rik haqida ma’lumot bering?

58. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari haqida ma’lumot bering.

59. Anonim murojaat va takroriy murojaat farqini ayting.

60. Murojaat etuvchini eshitish deganda nimani tushunasiz?

61. Murojaatlarga javoblar qanday tartibda amalga oshriladi?

62. Murojaatlarni ko‘rib chiqishni tugatish deganda nimani tushunasiz?

63. Agar murojaat qiluvchi o‘z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo‘lsa yoki uni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida iltimos qilgan bo‘lsa, Sizni harakatingiz.

64. Muqaddam berilgan javob xatida arifmetik xatolarga yo‘l qo‘yilganligi va ularni tuzatish to‘g‘risida murojaatchidan iltimosnoma kelib tushganda, qanday tartibga amal qulinadi?

65. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

66. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati qanday shakllantiriladi (tuzilmalarni o‘z ichiga oladi)?

67. Kimlar yuridik xizmat xodimi bo‘lishi mumkin? Yuridik xizmat xodimi bo‘lish uchun nomzodga qanday talablar qo‘yilgan?

68. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlari kimlarga hisobot beradi?

69. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishdagi ishtiroki haqida gapirib bering.

70. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimi tomonidan davlat organi va tashkilotlari hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazishi tartibi qanday?

71. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga qanday imtiyozlar yaratilgan?

72. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlari har chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning qancha miqdorida mukofotlanadi.

73. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga martaba darajalari berish tartibi qanday?

74. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimini stajirovkadan o‘tkazish tartibini yoritib bering.

75. Nima uchun yuridik xizmat xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod qilishda adliya organlari bilan kelishish muhim?

76. Qanday hollarda yuridik xizmat xodimini lavozimdan ozod etish masalalarini kelishish adliya organi tomonidan rad etiladi?

77. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan yuridik xizmat xodimi lavozimiga tayinlash masalasini kelishish uchun necha nafargacha nomzod yuborish mumkin?

78. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga qanday martaba darajalari beriladi va har bir martaba darajasida bo‘lish muddati haqida gapirib bering.

79. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimining majburiyatlari nimalardan iborat?

80. Kimlar yuridik xizmat xodimi va yuriskonsult yordamchisi lavozimida ishlashi mumkin emas?

81. Adliya vazirligi davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta’minlash sohasida qanday funksiyalarni amalga oshiradi?

82. Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi tushunchalariga ta’rif bering.

83. Davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmat shtat birligini qisqartirish yo‘l qo‘yiladimi?

84. Davlat organi va tashkilotida yuriskonsult yordamchisi lavozimi joriy etilishi mumkinmi va unga nisbatan qanday talablar qo‘yilgan?

85. Davlat organi va tashkiloti xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish sohasida yuridik xizmat xodimining qanday funksiyalarni amalga oshiradi?

86. Tadbirkorlik subyektiga mansub ko‘chmas mulkni buzib tashlash tartibini buzganlik uchun qonunchilikda qanday javobgarlik belgilangan?

87. Royalti nima?

88. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar yoki tuman (shahar) hokimliklarining olib qo‘yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko‘chmas mulk obyektini buzib tashlash to‘g‘risidagi qarori qaysi holatda qabul qilinadi?

89. Kimlar kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘la oladi?

90. Insofsiz raqobat tushunchasini yoritib bering.

91. Oilaviy tadbirkorlik va oilaviy korxona tushunchalarini yoritib bering.

92. Farzand tug‘ilganda beriladigan nafaqa kimlarga va qaysi organ tomonidan beriladi?

93. Xususiy mulk huquqini himoya qilish usullarini sanab bering?

94. Xodimni ishdan chetlashtirish va bu davrda unga haq to‘lash tartibini tushuntirib bering?

95. Xodimni ishdan chetlashtirish davrida ish haqini hisoblash tartibini tushuntirib bering?

96. Xodimni ishdan chetlashtirishni rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering?

97. Xodimni ishdan qonunga xilof ravishda chetlashtirishning huquqiy oqibatlarini tushuntirib bering.

98. Ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi nizoni qanday tartibda hal etsa bo‘ladi?

99. Mehnat nizolarini hal qilishda mediatsiya qilish tartibi qanday?

100. Olis va chekka hududda ishlovchi xodimlarga qanday qo‘shimcha imtiyozlar mavjud?